

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA**

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING**  
**TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida)**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy  
(PhD) on economics sciences**

**Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Temir yo'l transporti tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy  
mexanizmini takomillashtirish .....3

**Абдурахманова Мукаддас Тохтасиновна**

Совершенствование организационно-экономического механизма  
развития системы железнодорожного транспорта..... 27

**Abdurakhmanova Muqaddas Tokhtasinovna**

Improvement of the organizational and economic mechanism for the  
development of the railway transport system ..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA**

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING**  
**TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida)**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.2.PhD/Iqt1408 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kasimov Azamat Abdukarimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karriyeva Yoqutxon Karimovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdullayeva Matluba Nematovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "09" 05 kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-41-23. E-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1738 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "08" 22 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "08" 22 dagi 28 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.E. Sindarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**J.S. Fayzullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, i.f.d., professor

**T.S. Qo'chqorov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida transport infratuzilmasining strategik segmenti sifatida temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, logistika zanjirlarini optimallashtirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish – resurslardan samarali foydalanish, investitsiya jozibadorligini oshirish, raqobatbardosh tarif siyosatini joriy etish, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash va davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani modernizatsiya qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuvlar orqali temir yo‘l tarmog‘ining xizmat ko‘rsatish qobiliyati, samaradorligi va barqarorligi yuksalib, jahon miqyosida iqtisodiy o‘rni sur‘atlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Jahonda temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, avvalo, temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va uni boshqarishda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, logistika tizimlarini integratsiyalashtirish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish, tarif va subsidiya siyosatini iqtisodiy samaradorlik tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqish, transkontinental yo‘nalishlar bo‘yicha tranzit salohiyatni oshirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash hamda temir yo‘l sohasida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan strategik modellarni ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu izlanishlar global iqtisodiy integratsiya sharoitida temir yo‘l tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va xalqaro transport-komunikatsiya tizimlaridagi rolini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida temir yo‘l transport tizimini jadal rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish, transport-logistika xizmatlari bozorini kengaytirish, tashqi savdo va tranzit yuk tashish imkoniyatlarini rivojlantirish, “Yashil koridorlar” yaratish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish” kabi aniq ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy samarador va raqobatbardosh tarmoq sifatida rivojlantirishni ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirishda davlatning tartibga solish vazifalarini qayta ko‘rib chiqish, qonunchilik va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va “Yashil” tashabbuslar asosida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrdagi PF-213-son “O‘zbekiston Respublikasi transport tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 15-fevraldagi PQ-88-son “Yo‘l transporti sohasini raqamlashtirish va ekotransport

loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, shuningdek mazkur yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganilik darajasi.** Temir yo'l transport tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, davlat tomonidan tartibga solish, energiya tejamkorlik va ekologik samaradorlikni oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi. Jahon olimlaridan M.Porter, K.Menard, M.Kastels, S.Chopra va P.Mintsberg, L.Bertalanfi, J.Stern, K.Bouen, P.Styuart, M.Lambert kabilar transport infratuzilmasini samarali boshqarish, logistika zanjirlarini tashkil etish va transport sohasida davlat siyosatining rolini ilmiy asoslab berganlar<sup>1</sup>. Ular temir yo'l infratuzilmasida davlat-tarmoq integratsiyasi va davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish masalalarida ilmiy modellar ishlab chiqqan, transport tizimini raqobatbardoshlik va ekologik samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil qilgan.

MDH olimlari orasida V.G. Borodin, A.Ye. Yefimov, V.V. Gerasimov, Ye.A. Fedorov, I.R. Gaynutdinov, B.N. Anikeyev, A.Kolik, K.Ya. Kirillov kabilarning ishlari davlat tomonidan tartibga solish, tarif siyosatini shakllantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish va energiya tejamkorlik masalalarida muhim ilmiy asoslarni tadqiq qilgan<sup>2</sup>. Ular qayta tiklanuvchi energiya manbalari va "yashil" texnologiyalarni joriy qilish orqali tarmoq samaradorligini oshirishning uslubiy yo'llarini ko'rsatgan.

O'zbekiston olimlari orasida G.Samatov, M.Ikramov, A.Shermuhamedov, Q.Jiyadullayev, A.Zohidov kabilar temir yo'l transport tizimining iqtisodiy samaradorligi, davlatning boshqaruv funksiyalarini takomillashtirish va infratuzilmada innovatsiyalarni joriy etish masalalarida tadqiqotlar olib borgan<sup>3</sup>. Ular temir yo'l infratuzilmasini diversifikatsiya qilish, moliyalashtirishni optimallashtirish va

---

<sup>1</sup> Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – Free Press, 1980.; Menard C. Handbook of New Institutional Economics. – Springer, 2005.; Castells M. The Rise of the Network Society. – Wiley-Blackwell, 2010.; Chopra S., Meindl P. Supply Chain Management. – Pearson, 2020.; Bertalanffy L. General System Theory. – Braziller, 1968.; Stern J. Competition and Regulation in Transport Networks. – Edward Elgar, 2022.; Bowen G. The Green Supply Chain. – Kogan Page, 2017.; Stewart P. Adaptive Supply Chain Management. – Springer, 2016.; Lambert D. Logistics and Supply Chain Management. – Pearson, 2014.

<sup>2</sup> Borodin V.G. Upravleniye transportnoy sistemoy: teoriya i praktika. – M.: Infra-M, 2019.; Yefimov A.Ye. Ekonomika transporta. – M.: Yurayt, 2018.; Gerasimov V.V. Logistika jeleznodorojnogo transporta. – SPb.: Piter, 2020.; Fedorov Ye.A. Transportnaya infrastruktura i gosudarstvennoye regulirovaniye. – M.: Ekonomika, 2021.; Gaynutdinov I.R. Effektivnost gosudarstvennykh programm razvitiya jeleznodorojnogo transporta. – Kazan, 2022.; Anikeyev B.N. Ekonomicheskaya effektivnost transportnykh sistem. – Moskva, 2019.; Kolik A. Gosudarstvennoye regulirovaniye v transportnoy otrasli. – SPb.: Piter, 2021.; Kirillov K.Ya. Modeli razvitiya jeleznodorojnogo transporta. – M.: Ekonomika, 2022.

<sup>3</sup> Samatov G. Temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021.; Ikramov M. Transport tizimini rivojlantirishda davlatning roli. – T.: Fan, 2022.; Shermuhamedov A. Transport infratuzilmasini moliyalashtirish masalalari. – T.: Iqtisodiy tahlil, 2023.; Jiyadullayev Q. Temir yo'l'da qayta tiklanuvchi energiya va "yashil" texnologiyalar. – T.: Iqtisodiyot, 2023.; Zohidov A. ESG standartlarini transport tizimiga integratsiya qilish. – T.: Barqaror taraqqiyot, 2024.

raqamlashtirish asosida davlat-xususiy sheriklikning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan.

Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy manbalarda temir yo'l transport tizimini rivojlantirishda davlat ishtirokini kuchaytirish va "yashil" texnologiyalarni davlat siyosatiga integratsiya qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Xalqaro transport forumi hisobotlari, UNESCAP tahlillari, Yevropa komissiyasining "Green Transport Corridors" dasturlari, World Bank Group hisobotlari, ITF 2023 tahlillari kabi manbalarda temir yo'l sohasida energiya tejamkorlik, ESG talablarini amalga oshirish va davlat-tarmoq uyg'unligini ta'minlashga oid ilmiy-amaliy yechimlar keng yoritilgan<sup>4</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-38 "Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro logistikani rivojlantirish" mavzusidagi amaliy-ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** temir yo'l transporti tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

transport tizimini rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi nazariy asoslarini tadqiq etish;

temir yo'l transportining o'ziga xos xususiyatlari va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;

temir yo'l transportida "yashil" texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatida iqtisodiy mexanizmning amaldagi holati aniqlash;

temir yo'l transportining ekologik-iqtisodiy xavfsizligini baholash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

temir yo'l sohasida ekologik-iqtisodiy xavflarni kamaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

"Yashil temir yo'l" konsepsiyasi asosida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish yo'nalishlari belgilab olish;

temir yo'l transportini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "O'zbekiston temir yo'llari" AJning tashkiliy-iqtisodiy faoliyati belgilangan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib temir yo'l transporti tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, indikativ tahlil, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, ekspert baholash,

---

<sup>4</sup> International Transport Forum. Railway Development Trends. – ITF Report, 2023.; UNESCAP. Transport Infrastructure in Asia: Green Corridors and Digitalization. – UNESCAP, 2022.; European Commission. Green Transport Corridors Strategy. – EU Publication, 2023.; World Bank Group. Railways for Sustainable Development. – WBG, 2023.; ITF Transport Outlook 2023. – OECD, 2023.

korrelyatsion va regression tahlil, Life-Cycle Assessment (LCA) tahlili, Carbon Footprint tahlili, ESG ko'rsatkichlarini tahlil qilish, iqtisodiy-matematik modellash, klasterlashtirish, kompleks integral baholash, omillar tahlili va optimal model kabi ilmiy hamda amaliy usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

temir yo'l transporti sohasida ta'sir etuvchi iqtisodiy va tashkiliy omillarning ta'sir darajasini aniqlash hamda sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimining me'yoriy va chegaraviy qiymatlarini me'yorlashtirilgan ko'rsatkichlar va integral baholash uslubi asosida belgilash orqali temir yo'l transportida tashuv xizmatlari tannarxini pasaytirish chegarasi ( $Ch_{t/x} \leq 20\%$ ) asoslangan;

temir yo'l transportida ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasi integral indeks indikatorlari, ularning vaznlari va ballarini hisobga olgan holda "juda xavfli holat" (0-30), "xavfli holat" (31-50), "barqaror holat" (51-70), "eko-iqtisodiy xavfsizlik ta'minlangan holat" (71-90), "ESG talablariga to'liq mos holat" (91-100) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

temir yo'l transportini davlat tomonidan tartibga solishning me'yoriy-huquqiy, moliyaviy va davlat-xususiy sheriklik yo'nalishlari bo'yicha uyg'unlashtirilgan integratsiyalashgan mexanizmini takomillashtirish orqali davlat-xususiy sheriklikda xususiy investitsiya ( $U_{xi} > 30\%$ ) hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ( $U_{QTE} \leq 20\%$ )ning ulushlari miqdoriy qiymatlari asoslangan;

"Yashil temir yo'l klasterlari"ni shakllantirishning o'nta yo'nalishni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan modeli ESG va "Green KPI" tizimlari orqali tarmoqda energiya tejamkorlik darajasi 25% gacha oshirish, uglerod chiqindilarini 30-35% gacha kamaytirishni ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

iqtisodiy va tashkiliy omillarning ta'sir darajasini aniqlash va sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimining me'yoriy va chegaraviy qiymatlarini belgilash orqali transport tarmog'ining muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish imkoni yaratilgan;

temir yo'l transportida ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasini integral indeks indikatorlari asosida baholash mezonlarini joriy etish orqali tarmoqda xavfsizlik darajasini aniqlash, xavfli holatlarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

ekologik-iqtisodiy xavflarni kamaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini "yashil maqom" asosida litsenziyalash va xarajatlar tuzilmasida ekologik komponentlarni alohida ko'rsatish orqali tarmoq subyektlarining ekologik mas'uliyatini kuchaytirish, sohaga investitsiyalar jalb etish va ekologik talablarning bajarilishini nazorat qilish imkoni yaratilgan;

"Yashil temir yo'l klasterlari"ni shakllantirishning integratsiyalashgan modeli orqali klasterlar tarmoq infratuzilmasining energiya tejamkorligi, raqobatbardoshligi va ESG talablariga mosligini ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini yaratish imkoni yaratilgan;

klasterlar bo'yicha "Green KPI" tizimini joriy etish, klasterlar uchun investitsiyaviy dasturlar ishlab chiqish va davlat-xususiy sheriklikning yangi formatlarini yo'lga qo'yish imkoni yaratilgan.



**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi, ishlab chiqilgan modellarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning temir yo'l transport tarmog'iga vakolatli tashkilotlaridan o'tganligi va tasdiqlanganligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati temir yo'l transport tizimini iqtisodiy jihatdan baholash va uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, transport-tranzit va tarif tizimi rivojlantirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati temir yo'l transporti tizimini iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha tarmoq va hudud dasturlarini ishlab chiqish, soha faoliyatini rejalashtirish, samarali tashkil etish, temir yo'l transport tizimi istiqbollarini belgilash hamda "Transport iqtisodiyoti", "Temir yo'l transport korxonalari iqtisodiyoti", "Transport korxonalarini rivojlantirish" fanlari bo'yicha keys-stadilar, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalari tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Temir yo'l transporti tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo'l transporti sohasida ta'sir etuvchi iqtisodiy va tashkiliy omillarning ta'sir darajasini aniqlash hamda sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimining me'yoriy va chegaraviy qiymatlarini me'yorlashtirilgan ko'rsatkichlar va integral baholash uslubi asosida belgilash orqali temir yo'l transportida tashuv xizmatlari tannarxini pasaytirish chegarasi ( $Ch_{v/x} \leq 20\%$ ) ni belgilash bo'yicha taklif "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2025-yil 30-maydagi 03/2119-25-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish orqali sohada kuzatilayotgan muammolar va salbiy tendensiyalarni o'z vaqtida aniqlashga hamda ularni bartaraf etish uchun maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini yaratgan;

temir yo'l transportida ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasi integral indeks indikatorlari, ularning vaznlari va ballarini hisobga olgan holda "juda xavfli holat" (0-30), "xavfli holat" (31-50), "barqaror holat" (51-70), "eko-iqtisodiy xavfsizlik ta'minlangan holat" (71-90), "ESG talablariga to'liq mos holat" (91-100) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirish taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2025-yil 30-maydagi 03/2119-25-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida temir yo'l transporti ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasining integral indeksi 30,8 ga tengligi aniqlangan;

temir yo'l transportini davlat tomonidan tartibga solishning me'yoriy-huquqiy, moliyaviy va davlat-xususiy sheriklik yo'nalishlari bo'yicha uyg'unlashtirilgan integratsiyalashgan mexanizmini takomillashtirish orqali davlat-xususiy sheriklikda xususiy investitsiya ( $U_{xi} > 30\%$ ) hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ( $U_{QTE} \leq 20\%$ )ning ulushlari miqdoriy qiymatlari asoslash bo'yicha taklif «O'zbekiston

temir yo'llari» AJ faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" Ajning 2025-yil 30-maydagi 03/2119-25-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu mexanizmning amaliyotga joriy etilishi natijasida kutilayotgan xavflarni oldini olish va uning ta'sirchanligini 10-15 foizga kamaytirish imkoni yartilgan;

"Yashil temir yo'l klasterlari"ni shakllantirishning o'nta yo'nalishni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan modeli ESG va "Green KPI" tizimlari orqali tarmoqda energiya tejamkorlik darajasi 25% gacha oshirish, uglerod chiqindilarini 30-35% gacha kamaytirishni ta'minlash asosida takomillashtirish taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" Ajning 2025-yil 30-maydagi 03/2119-25-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida transport sohasida xalqaro talablarga moslashish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ESG prinsiplarini joriy qilish orqali modelning umumiy samaradorligi 35,5% ga oshishi mumkinligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ishlar, shulardan, OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika, 3 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalari bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Transport tarmog'ini tashkiliy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida transportning sanoat iqtisodiyotidagi tutgan o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Transport tarmog'ini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizm turlari va tasnifi ko'rsatib berilgan. Temir yo'l transportining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijobiy va salbiy omillar tizimi keltirilgan, temir yo'l transportining iqtisodiy rivojlanishini baholovchi indikatorlar va ularning me'yoriy qiymatlari tadqiq etilgan.

Temir yo'l transportini rivojlantirish jarayonida uning iqtisodiyot tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqlik darajasi va sanoat infratuzilmasidagi funksional o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar iqtisodiy sharoitlar va bozor talablariga to'la mos kelmasligi natijasida transport tizimining ishlab chiqarish samaradorligi va klasterlararo integratsiyadagi imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti. Dissertatsiyada temir yo'l transportining

iqtisodiy tizimdagi roli, uning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri, hamda sanoat rivojlanishiga integratsiyalashuv darajasi kompleks tahlil qilindi. Shu asosda mexanizmnining tarkibiy jihatlari, joriy holati va uning tashqi-ichki muhit bilan o'zaro ta'siri o'rganildi, shu asosda temir yo'l transportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning nazariy asosi keltirildi (1-rasm).



**1-rasm.** Temir yo'l transportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning nazariy asosi<sup>5</sup>

Temir yo'l transporti sanoat infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning iqtisodiy tizimdagi o'rnini baholashda uning barcha o'ziga xos (spetsifik) xususiyatlari miqdoriy va sifat jihatdan chuqur tahlil qilinishi zarur. Mazkur transport turining ishonchliligi, yuk tashishdagi samaradorligi, rejalashtirilgan harakat tizimi va davlat tomonidan strategik darajada boshqarilishi – uning sanoat tarmoqlaridagi vazifalarini yanada kengaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, temir yo'l transportining tarmoq strukturasidagi monopoliya, fleksibillikning cheklanganligi va innovatsion moslashuvning sekin kechishi kabi muammolar ham mavjud. Bu holatlar sanoat logistikasini tez o'zgaruvchan bozor sharoitiga moslashtirishda muayyan cheklovlar yaratadi. Shuning uchun, transportning mazkur turi nafaqat infratuzilmaviy obyekt, balki uning ichki mexanizmlari sanoat rivojiga yo'naltirilgan iqtisodiy vosita sifatida qayta tashkil etilishi talab etiladi. Tadqiqot ishida

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi.

temir yo‘l transportining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning sanoatdagi iqtisodiy ahamiyati ochib berildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Temir yo‘l transportining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning sanoatdagi iqtisodiy ahamiyati<sup>6</sup>**

<b>№</b>	<b>Xususiyati</b>	<b>Sabab-oqibatli izoh</b>	<b>Sanoatdagi o‘rni</b>	<b>Kamchiligi</b>
1	Katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga tashish qobiliyati	Yirik tarmoq tuzilmasi va vagonlar salohiyati temir yo‘l ni og‘ir sanoat uchun samarali tashish vositasiga aylantiradi.	Metallurgiya, neft-gaz, qurilish va qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga xom ashyo yetkazib berishda asosiy infratuzilma.	Yuk miqdori kam bo‘lgan kichik korxonalar uchun xarajatli va noqulay.
2	Rejali va signal boshqaruviga asoslangan harakat tizimi	Harakat tarkiblari oldindan tuzilgan grafik asosida boshqariladi, xavfsizlik va uzluksizlik ta‘minlanadi.	Ishlab chiqarish jarayonlarida yetkazib berish barqarorligi va logistika intizomini ta‘minlaydi.	Tezkor talablarga javob berish imkoniyati past, fleksibillik cheklangan.
4	Energiya tejamkorlik va ekologik samaradorlik	Elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyalari atmosferaga kamroq gaz chiqaradi, energiya xarajati samarali.	Sanoat korxonalari uchun ‘yashil’ logistika yechimi sifatida foydalanish imkonini beradi.	To‘liq modernizatsiya qilinmagan tarmoqlarda bu ustunlik amalga oshmaydi.
6	Tarmoqlararo logistika zanjirlaridagi markaziy rol	Temir yo‘l xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar harakatining uzviy halqasiga aylangan.	Sanoat tarmoqlari o‘rtasida resurs harakatini muvofiqlashtirishni ta‘minlaydi.	Yo‘nalishlar cheklanganligi tufayli alohida mintaqa va bozorlar qamrab olinmay qolishi mumkin.
7	Innovatsiyaga moslashish darajasi past	Infratuzilmaning modernizatsiya sur‘ati sust, raqobat muhiti zaif.	Raqamli logistika yechimlarini joriy qilishda davlat dasturlariga suyanuvchi tarmoq.	Texnologik jihatdan orqada qolish xavfi mavjud.
8	Tarif siyosatining strategik ahamiyati	Temir yo‘l tariflari sanoat mahsulotlarining tannarxiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.	Ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlar balansida muhim omil.	Faol bozor sharoitida segmentlashgan tariflar yetarlicha joriy etilmagan.
10	Mahalliy sanoat klasterlari bilan funksional bog‘liqlik	Tarmoq ichki bozor tarmoqlari bilan chuqur logistika aloqalariga ega.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xom ashyo yetkazib berish va tayyor mahsulotlarni tarqatishda asosiy omil.	Faqat yirik markazlarda rivojlangan, ayrim hududlar qamrab olinmagan.
11	Tranzit potentsiali va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati	Xalqaro yo‘laklar orqali yuk tashish imkoniyatlari mavjud.	Sanoat mahsulotlarini eksportga yo‘naltirishda tamoyilli rol o‘ynaydi.	Bozor talablari va yuk oqimiga moslashish imkoniyati cheklangan.
12	Xususiy sektor ishtirokida cheklavlar mavjud	Tarmoqda asosan davlat subyektlari ustuvor hisoblanadi.	Xususiy operatorlar sanoat logistikasida faol ishtirok etishi uchun imkoniyat cheklangan.	Liberallashtirish jarayoni sust kechmoqda.

Temir yo‘l transportining barqaror rivojlanishi ko‘p omilli iqtisodiy muhit va institutsional sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu omillarning tahlili, ularni ichki va tashqi guruhlariga klasterlash asosida aniqlash, sohaning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy va amaliy yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb

<sup>6</sup> O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

etadi. Dissertatsiyada temir yo‘l transportining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijobiy va salbiy omillar ajratildi va omillarning ta’sir koeffitsiyentini hisoblab, ularning sohaga qay darajada ta’sir qilishini quyidagi formulalar asosida aniqlash mumkin bo‘ladi.

$$I_{index} = \sum_{i=1}^n w_i^+ * x_i^+ - \sum_{i=1}^M w_j^- * x_j^- \quad (1)$$

Bu yerda:

$x_i^+$  –  $i$  – ijobiy omilning normallashtirilgan qiymati;

$w_i^+$  – shu omilning og‘irlik koeffitsiyenti (AHP yoki ekspert bahosi bilan);

$x_j^-$  –  $j$  – salbiy omilning normallashtirilgan qiymati;

$w_j^-$  – salbiy omilning og‘irligi;

$I_{index}$  – umumiy ta’sir indeksi.

AHP–TOPSIS modeli temir yo‘l transporti rivojiga ta’sir etuvchi omillarni baholash va ularni ahamiyati bo‘yicha tartiblash uchun qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvda avvalo har bir omilga ekspertlar tomonidan og‘irlik koeffitsiyenti beriladi (AHP), so‘ng ular asosida har bir variantning ideal holatga qanchalik yaqin yoki uzoqligi aniqlanadi (TOPSIS). Variantning ideal nuqtaga yaqinligi va antiideal dan uzoqligi asosida ta’sir indeksi hisoblanadi. Bu indeks 0 dan 1 gacha bo‘lib, 1 ga yaqin bo‘lsa – omil ta’siri kuchli, 0 ga yaqin bo‘lsa – ta’siri zaif hisoblanadi. Model strategik qaror qabul qilishda eng samarali omillarni aniqlash uchun ishonchli asos bo‘lib xizmat qiladi va quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S_i^+ = \sqrt{\sum_{j=1}^n (v_{ij} - v_j^+)^2}, \quad S_i^- = \sqrt{\sum_{j=1}^n (v_{ij} - v_j^-)^2}, \quad C_i = \frac{S_i^-}{S_i^+ + S_i^-} \quad (2)$$

Bu yerda:

$C_i$  – omillar ta’sirining idealga yaqinligi (0-1);

$v_{ij}$  – normallashtirilgan qiymatlar;

$v_j^+, v_j^-$  – ideal va antiideal nuqtalar.

Tadqiqotda temir yo‘l transportining iqtisodiy rivojlanishini baholovchi indikatorlarni oltita yo‘nalishga va har bir yo‘nalishga mos ko‘rsatkichlarining qiymatlari o‘rganildi (2-jadval), ular soha samaradorligini aniqlashda muhim mezonlar hisoblanadi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha me‘yoriy qiymatlar, inqiroz oldi holat, inqiroz holati hamda O‘zbekistonda 2023 yilda kuzatilgan amaldagi qiymatlar ta’riflangan. Bu tahliliy yondashuv orqali sohadagi islohotlar samaradorligini, mavjud muammolarni va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini tizimli tarzda baholash mumkin bo‘ladi. Mazkur indikatorlar moliyaviy samaradorlik, tashish faoliyati, tarif siyosati, infratuzilma holati, mehnat unumdorligi va ekologik raqamli samaradorlik kabi yo‘nalishlarga ajratilib, har bir yo‘nalishda tarmoq barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim ko‘rsatkichlar qamrab olingan.

## 2-jadval

## Temir yo‘l transportining iqtisodiy rivojlanishini baholovchi indikatorlar<sup>7</sup>

№	Indikatorlar	O‘lchov birligi	Me‘yor	Inqiroz oldi holat	Inqiroz holat	O‘zbekistondagi qiymatlar
<b>Moliyaviy samaradorlik</b>						
1.	Rentabellik	%	12	4	1	6.8
2.	Daromadlar o‘sishi	%	8	1	-3	3.2
3.	Foydalilik marjasi	%	18	4	0	10.5
4.	Investitsiyaning qaytimi (ROI)	koeff.	1.1	0.5	0.15	0.77
<b>Tashish faoliyati</b>						
5.	Vagon aylanuvi	kun	4.2	6	8	5.1
6.	Yuk oqimi intensivligi	t/km	95	50	25	73
7.	Yuk va yo‘lovchi tashish hajmining o‘sish sur‘atlari	%	5-7	4-5	2-3	1
<b>Tarif va narx siyosati</b>						
8.	Tarif-tannarx nisbati	koeff.	1.05	0.85	0.65	0.91
9.	Imtiyozli tariflar ulushi	%	12	18	28	15
10.	Tariflar bozor narxlariga moslek indeksi	indeks	0.98	0.75	0.45	0.88
11.	Yuk va yo‘lovchi tashishda narxlarning o‘zgarish dinamikasi	%	15-20	25-30	30-40	30
12.	Asosiy eksport va import tovarlari tannarxida transport xarajatlarining ulushi	%	7-10	10-20	20-30	30-35
<b>Infratuzilma holati</b>						
13.	Lokomotivlar yangilanish ulashi	%	25	12	4	10
14.	Temir yo‘l uzunligidagi eski yo‘llar ulushi	%	18	38	55	45
15.	Signal tizimining yangilangan qismi	%	45	18	8	22
16.	Infratuzilmadagi investitsiyalar ulushi	%	12	4	1	6
17.	Temir yo‘llarning elektrlash	%	80	45	35	55
<b>Mehnat unumdorligi</b>						
18.	Mehnat unumdorligi indeksi	indeks	95	68	38	81
19.	Ish haqi o‘sishi	%	10	4.5	0.5	5.7
20.	Ishchi kuchining malaka indeksi	indeks	80	58	28	69
<b>Ekologik va raqamli samaradorlik</b>						
21.	SO <sub>2</sub> chiqindisi	kg/t	0.35	0.65	1	0.58
22.	Yashil energiyadan foydalanish	%	35	18	8	20
23.	Raqamli xizmatlar ulushi	%	45	18	3	26
24.	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilgan	%	25	8	2	11
25.	Big Data va IoT texnologiyalari mavjudligi	%	20	5	1	7

Taklif etilgan yondashuvdagi indikatorlar asosida temir yo‘l transportining iqtisodiy holatini yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli tahlil qilish, sohadagi samaradorlik va muammolarni aniqlashning eng muhim ilmiy va amaliy usuli sifatida xizmat qiladi. Bu yondashuv sohadagi har bir ko‘rsatkichni obyektiv baholash, uni me‘yoriy chegaralar bilan solishtirish, qaysi yo‘nalishda orqada ekanligini aniqlash va ustuvor rivojlantirish nuqtalarini belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, kompleks baholash vositasi sifatida ushbu indikatorlar tizimi, strategik qarorlar qabul qilishda, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlashda va sektorni raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy asosda yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sohaviy islohotlarni maqsadli

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.


amalga oshirish va modernizatsiya jarayonlarini faktlar asosida boshqarish uchun bunday tahliliy yondashuv zarur va dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot ishining **“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatida iqtisodiy mexanizmning amaldagi holati va tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida temir yo‘l transport tarmog‘ining rivojlanish tendensiyalari tahlili keltirilib, uning rivojlanish ko‘rsatkichlari va mummolari tadqiq etilgan. O‘zbekiston temir yo‘llarining ESG talablari bilan taqqoslama tahlili va temir yo‘l transportida ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash uchun integral indeks indikatorlari, ularning vaznlari tadqiq etildi, shu bilan birga sohada ekologik-iqtisodiy xavflarni kamaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Sanoat infratuzilmasining strategik komponenti sifatida temir yo‘l transporti milliy iqtisodiyotda resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish zanjirlarining uzviy bog‘liqligi va logistika harakatlarining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uning faoliyati nafaqat jismoniy tashish xizmatlari bilan, balki iqtisodiy jarayonlarning tarkibiy elementlarini optimallashtirishdagi roli bilan ham ajralib turadi. Shu sababli, temir yo‘l transporti faoliyatini tahlil qilishda klassik hisob-kitoblar bilan cheklanib qolmasdan, ko‘rsatkichlar tizimi orqali har tomonlama va chuqur yondashish talab etiladi.

Shuningdek, temir yo‘l tarmog‘ining barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini baholash uchun ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratish zarur. Bir tonna-kilometrga to‘g‘ri keladigan SO<sub>2</sub> chiqindisi miqdori temir yo‘lning “yashil” transport sifatidagi maqomini ko‘rsatadi. Energiya sarfi esa tashilgan yuk birligiga to‘g‘ri keladigan energiya iste’moli orqali texnik samaradorlik darajasini baholash imkonini beradi. Bu ko‘rsatkichlar tarmoqda “yashil iqtisodiyot” talablariga mos keluvchi yechimlarni joriy etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda transport sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar sonida sezilarli dinamika kuzatilmoqda. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlari ulushi yuqori darajada ustuvorlik kasb etgan bo‘lsa-da, 2024–2025 yillarda ular soni keskin kamayib, yirik korxonalar ulushi nisbatan oshgan. Bu holat sohadagi tarkibiy o‘zgarishlar, konsolidatsiya jarayonlari va raqobat muhitidagi transformatsiyalar bilan izohlanishi mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Transport sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni<sup>8</sup>.**

2021–2025 yillar davomida transport sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tarkibida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 2023 yilda eng yuqori ko‘rsatkichga yetgan bo‘lsa-da, 2024–2025 yillarda keskin kamayib, 15545 taga tushishi sohadagi institutsional barqarorlikka tahdid sifatida baholanadi. Boshqa tomondan, yirik korxonalar sonining

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

2025 yilda 245 tagacha ko'payishi tarmoqda kapital va resurslarning markazlashuvini, bozordagi konsolidatsiya jarayonlarini aks ettiradi. Sanoat iqtisodiyoti nuqtai nazaridan, bu tendensiya tarmoqda miqyos samarasi, avtomatlashtirish va raqobat kuchi yirik subyektlar qo'lida jamlanishini ko'rsatadi. Kichik korxonalar sonidagi pasayish esa yuqori texnologik va moliyaviy talablar, bozorga kirish to'siqlari va institutsional muhitdagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Transport sohasidagi subyektlar tuzilishidagi muvozanat o'zgarishi tarmoqning institutsional rivojlanish modelini qayta ko'rib chiqish, kichik va yirik operatorlar o'rtasida mutanosib sheriklik mexanizmlarini joriy etish zaruratini dolzarb qiladi.

### 3-jadval

#### Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi tarkibi<sup>9</sup>

№	Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
<i>Umumiy yuk tashish hajmi, mln tonna</i>						
	<b>Transport turlari jami</b>	<b>1366.7</b>	<b>1420.2</b>	<b>1420.9</b>	<b>1455.7</b>	<b>1521.2</b>
<i>Shu jamladan</i>						
1.	Temir yo'l transporti	5.2	5.1	5.1	5.1	4.8
2.	Avtomobil transporti	90.6	90.3	90.4	90.8	91.1
3.	Quvur transporti	4.2	4.6	4.5	4.1	4.1
<i>Yuk aylanmasi, mln t-km</i>						
4.	<b>Transport turlari jami</b>	<b>66894.2</b>	<b>74784.8</b>	<b>75492.7</b>	<b>77139.1</b>	<b>79507.4</b>
<i>Shu jamladan</i>						
5.	Temir yo'l transporti	35.3	32.9	33.1	35.1	34.5
6.	Avtomobil transporti	24.3	25.5	27.2	28.3	28.9
7.	Quvur transporti	40.1	41.2	39.3	36.3	36.2

2020–2024 yillar davrida yuk tashish hajmi va yuk aylanmasi dinamikasi transport turlari bo'yicha o'zgaruvchanlikni namoyon etmoqda. Ayniqsa, temir yo'l va avtomobil transporti o'rtasidagi nisbiy ulush va o'sish tendensiyalari transport sektoridagi institutsional va texnologik muammolar bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Umumiy yuk tashish hajmi 2020-yilda 1366,7 mln tonnadan 2024-yilda 1521,2 mln tonnagacha o'sgan bo'lsa-da, bu o'sish asosan avtomobil transporti hisobiga ro'y bergan. Temir yo'l transporti orqali tashilgan yuk hajmi esa 2020-yilda 5,2 mln tonna bo'lib, 2024-yilda 4,8 mln tonnagacha pasaygan, ya'ni 10% ga yaqin kamayish kuzatilgan. Shu orqali, temir yo'l transporti ichki bozorda yuk tashishda o'z ulushini yo'qotmoqda.


Avtomobil transporti esa 2020-yilda 90,6 mln tonna yuk tashgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 91,1 mln tonnaga yetgan. Bu ortiqcha o'sish katta miqyosda bo'lmasada, ustuvorlikning saqlanishini va bozordagi talabning ko'proq ushbu transport turiga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Avtomobil transportining samaradorligi logistikadagi erkinlik, masofaning qisqaligi va vaqtining tejalishi bilan izohlansa-da, uning yuqori xarajatli va ekologik jihatdan noqulay tomonlari ham mavjud.

Natijalarga asosan, birinchidan, temir yo'l transportining tarmoqlararo raqobatbardoshligi pasayib borayotgani aniq, bu esa uning moliyaviy kamquvvatligi, xizmatlar diversifikatsiyasining yetishmasligi, texnologik modernizatsiya sur'atining sekinligi va tarif siyosatidagi markazlashgan yondashuv bilan izohlanadi. Ikkinchidan, avtomobil transportining ulushi yuqori bo'lib, bozor ehtiyojlariga tez moslashuvi,

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.



xususiy operatorlar ko‘payishi va xizmatlar segmentatsiyasi orqali yuqori manyovranlikni ta‘minlayotgani uning raqobatda ustunligini ta‘minlamoqda. Shu bilan birga, avtomobil transportining yo‘l infratuzilmasiga bo‘lgan yuklama, yuqori yonilg‘i xarajatlari va ekologik salbiy ta‘siri tizimli yondashuvni talab etadi.




**3-rasm. 2018-2023 yillarda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning asosiy moliyaviy natijalar<sup>10</sup>, mlrd. so‘m.**

2018–2023 yillarda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning yuk tashish faoliyati bo‘yicha moliyaviy natijalari tashqi ko‘rinishda barqaror o‘shishni ko‘rsatsa-da, chuqur tahlil bu o‘shishning ichki zichligi va iqtisodiy barqarorligi nuqtai nazaridan jiddiy ziddiyatli jihatlarni ochib beradi. Daromad ko‘rsatkichi 3,5 trln so‘mdan 8,2 trln so‘mgacha oshgan. Biroq bu o‘shishni absolyut ifodada ijobiy baholash bilan cheklanish mutlaq noto‘g‘ri – soha daromadining o‘shishi foydalilikni emas, balki xarajatlarning proporsional bo‘lmagan holda ortishi orqali amalga oshmoqda. Bu holat samaradorlik indeksidagi o‘rtacha 1,7–1,8 darajasi orqali yaqqol namoyon bo‘lmoqda, ya‘ni soha hali ham xarajatdan ozgina yuqori tushum bilan faoliyat yuritmoqda, bu esa barqaror rentabellikni ta‘minlash uchun yetarli emas.

2024 yil holatiga ko‘ra, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibidagi elektrovoz, teplovoz va manyovr lokomotivlarining asosiy qismi xizmat muddati bo‘yicha katta yosh toifalariga tegishli. Xususan, 30 yildan ortiq ishlab kelayotgan lokomotivlar umumiy inventar parkda ustunlik qilmoqda. Misol tariqasida, 99 ta teplovoz, 30 ta elektrovoz va 185 ta manyovr lokomotiv 30 yildan oshgan. Bu esa harakat tarkibining katta qismi texnik jihatdan eskirganligini va ekspluatatsiya xarajatlarning yuqori, samaradorlikning esa past darajada ekanini ko‘rsatadi. (4-rasm).

Temir yo‘l transportining barqaror rivojlanishi faqat texnik va iqtisodiy emas, balki ekologik mezonlar asosida ham baholanishi lozim. ESG (Environmental, Social, Governance) talablari bugungi kunda xalqaro transport sohasida strategik standart sifatida qaralmoqda.

<sup>10</sup> “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ma‘lumotlari.



**4-rasm. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning inventar harakat tarkibining “yosh” tarkibi<sup>11</sup>, 2024-yil**

Quyidagi jadvalda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatining ekologik holati ESG talablari bilan solishtirilib, asosiy zichlik nuqtalari va farqlar tahlil qilingan (4-jadval). 2024-yil holatiga ko‘ra, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning faoliyatida ekologik samaradorlik past darajada ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. ESGning ekologik talablariga asosan temir yo‘l transporti kam uglerodli, energiya samarali va ekologik toza faoliyat yurituvchi tarmoq bo‘lishi lozim. Biroq amaliy holatda esa, “O‘zbekiston temir yo‘llari”dagi harakat tarkibining asosiy qismi bu standartlarga mos kelmaydi.

**4-jadval  
O‘zbekiston temir yo‘llarining ESG talablari bilan taqqoslama tahlili<sup>12</sup>**

№	Ekologik mezonlar (ESG-Environmental)	ESG talablari	Amaldagi holat (2024)
1	CO <sub>2</sub> chiqindisi (gramm/t-km)	15–25 g/t-km	~36–42 g/t-km
2	Dizel lokomotivlar ulushi (%)	< 30%	~65%
3	Energiya tejovchi lokomotivlar ulushi (%)	≥ 50%	~25%
4	O‘rtacha texnik yosh (lokomotivlar)	≤ 15 yil	60% park – 20 yildan katta
5	Havo ifloslantiruvchi chiqindilar (NO <sub>x</sub> , SO <sub>2</sub> , PM)	Ekologik standartlarga muvofiq	80% texnika standartsiz
6	Ekologik lizing dasturlari	Mavjud bo‘lishi kerak	Mavjud emas
7	Karbon soliq yoki kvota tizimi	Joriy etilgan bo‘lishi kerak	Mavjud emas
8	ESG indeks yoki KPI tizimi	ESG KPI tizimi amalga oshirilgan	Mavjud emas
9	Ekologik sertifikatlashtirish (ISO 14001 va h.)	Barcha harakat tarkibi sertifikatlangan bo‘lishi kerak	Joriy etilmagan

Temir yo‘l transportida ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasini miqdoriy baholash natijalari haqiqiy tahdidlar darajasini turli diapazonlarda aks ettiradi. Bu maqsadda ishlab chiqilgan maxsus reyting shkalasi 100 ballik asosda qurilgan bo‘lib, u faoliyat samaradorligi, ekologik tavakkallik, texnik holat va ESG talablariga muvofiqlik darajalarini qamrab oladi. Temir yo‘l transportining ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasini xolis va aniq baholash uchun faqat alohida ko‘rsatkichlarni tahlil qilish yetarli emas. Chunki bu xavflar turli yo‘nalishlarda – texnik, ekologik, tashkiliy va moliyaviy

<sup>11</sup> “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ma’lumotlari.

<sup>12</sup> O‘zrganilgan manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

sohalarda namoyon bo‘ladi va ularning ta’siri o‘zaro bog‘liq. Shu sababli, tahlilni murakkab ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

## 5-jadval

### Temir yo‘l transportida ekologik-iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash uchun integral indeks indikatorlari, ularning vaznlari va ballari<sup>13</sup>

№	Indikator nomi	Vazn koeffitsiyenti (W)	Ball (B, 0–100)	W × B
1	SO <sub>2</sub> chiqindisi (g/t-km)	0.12	40	4.8
2	NO <sub>x</sub> va PM chiqindisi (mg/kVt-soat)	0.10	35	3.5
3	Energiya sarfi (kVt/km yoki l/100km)	0.10	50	5.0
4	Ekologik xavfli texnika ulushi (%)	0.08	30	2.4
5	Texnik parkning o‘rtacha ekologik yoshi (yil)	0.08	25	2.0
6	Dizelda ishlaydigan harakat tarkibi ulushi (%)	0.08	45	3.6
7	Yashil lokomotivlar ulushi (%)	0.10	20	2.0
8	Ekologik toza energiyadan foydalanish darajasi (%)	0.10	15	1.5
9	Ekologik xavfsizlikka yo‘naltirilgan investitsiyalar (%)	0.12	10	1.2
10	Xizmatdan chiqib ketgan xavfli texnika ulushi (%)	0.12	40	4.8
	<b>Jami:</b>	<b>1.00</b>		<b>30.8</b>

